

20-Sentyabr, 2025-yil

**PIRLS TADQIQOTI DOIRASIDA BOSHLANG'ICH SINF  
O'QUVCHILARINING O'QISH KO'NIKMALARINI BAHOLASH VA  
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

**Rahmonova Halima Abdug'aniyevna**

*Kosonsoy tumani 44-sonli maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari va metodologik asoslari tahlil qilinib, o'quvchilarning matnni o'qish, tushunish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, misol sifatida matnga asoslangan topshiriq turlari va baholash mezonlari keltirilgan. Maqolada boshlang'ich ta'linda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishning dolzarb jihatlari hamda xalqaro tajriba asosidagi samarali yondashuvlar o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, baholash mezioni, innovatsion yondashuv.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы оценки и развития навыков чтения учащихся начальных классов в рамках международного исследования PIRLS. Анализируются цели, задачи и методологические основы исследования, раскрываются пути формирования у школьников навыков понимания, анализа и критической оценки текста. В качестве примера приводятся виды заданий и критерии оценивания. Особое внимание удалено современным подходам и значению международного опыта в развитии читательской грамотности младших школьников.

**Ключевые слова:** PIRLS, читательская грамотность, начальное образование, критерии оценивания, инновационные подходы.

**Abstract.** This article explores the assessment and development of primary school students' reading skills within the framework of the PIRLS international study. The objectives, tasks, and methodological foundations of the research are analyzed, while strategies for enhancing students' comprehension, analysis, and critical evaluation of texts are highlighted. Sample tasks and assessment criteria are provided to illustrate the approach. The paper emphasizes the importance of international experience and innovative methods in fostering reading literacy among primary school learners.

**Keywords:** PIRLS, reading literacy, primary education, assessment criteria, innovative approaches.

20-Sentyabr, 2025-yil

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda, keljak poydevori bo'lgan yoshlarning ijodiy fikrlashini va tashabbuskorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rghanish, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish hamda xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqin hamkorlik qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qaroriga muvofiq, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshiruvchi Milliy markaz tashkil etildi. Demak, bu o'rinda PIRLS xalqaro tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) - bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga qaratilgan xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, ta'lim siyosatini takomillashtirish, ta'lim tizimidagi zaif nuqtalarni aniqlash va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ushbu dastur boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlash, o'qilgan matn asosida tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Bu tadqiqot har besh yilda bir marta o'tkaziladi va o'quvchilarning o'qish savodxonligini global miqyosda tahlil qilish imkonini beradi.

PIRLS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish malakasini takomillashtirishdan iboratdir. PIRLS tadqiqotlarida, asosan 4-sinf o'quvchilari ishtiroy etadi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborlik, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Tadqiqotlarda qo'llaniladigan matnlarni turli joydagi maktab o'qituvchilari o'quvchilarning bilimi va qiziqishlarini inobatga olgan holda tavsiya qilishadi. Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. PIRLS tadqiqotlarida tavsiya etilgan matnlarni o'qish va matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish natijasida o'quvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilg'ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o'qish strategiyasidan xabardor va o'qish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. PIRLS tadqiqoti uchun tavsiya etilgan matnlar o'quvchilarni ongli fikrlashga, o'z fikrlarini kengaytirgan holda mushohada yuritishga xizmat qiladi. Tadqiqot uchun tanlangan matn o'quvchilar uchun unchalik tanish

**“FAN, INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

20-Sentyabr, 2025-yil

bo’lmasligi lozim. Har bir tanlangan matn o’quvchilarning yosh doirasi hamda fikrlash qamrovini hisobga olgan holda tanlanadi.

*PIRLS testidan namuna:*

Tulki – juda ayyor hayvon. U asosan o’rmonlarda yashaydi. Tulki quyon, sichqon, qushlarni ovlaydi. Ayrim paytlarda mevalar va rezavorlar ham yeydi. Tulkining qizg’ish rangdagi mo’ynasi qishda yanada qalinlashadi.

Topshiri q turi	Mazmun i	Namuna viy savol	Javob shakli	Topshiri q turi
Javobi tanladigan test savoli	Matndan ma’lumotni to’g’ri topish va tanlash	Tulki asosan qayerda yashaydi? A) dashtlarda B) cho’lda C) o’rmonlarda D) tog’larda	Variantla rdan birini tanlash	Javobi tanladigan test savoli
Qisqa ochiq javob	Matndan qisqa fakt yoki asosiy g’oyani yozib berish	Tulki qaysi hayvonlarni ovlaydi?	1-2 gaplik javob	Qisqa ochiq javo)
Batafsil ochiq javob	O’quvchi dan fikrini asoslab yozish, tahlil qilish	Sizningc ha, Tulki qishda qanday o’zgaradi? Nega deb o’ylaysiz?	3-4 gap yoki kichik izoh	Batafsil ochiq javob
Ijodiy savol	Matnga shaxsiy munosabat bildirish yoki voqeani davom ettirish	Agar siz tulki bo’lsangiz, o’zingizga qanday uy qurardingiz?	O’quvchi o’z fikrini yozadi	Ijodiy savol
Taqqosla sh va tahlil	Matndagi ikki fikrni solishtirish, xulosa	Tulki odatda hayvonlarni ovlaydi,	2-3 gaplik izoh	Taqqosla sh va tahlil

**“FAN, INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

20-Sentyabr, 2025-yil

	chiqarish	ba'zan esa meva va rezavorlar yeydi. Sizningcha, nima uchun tulki ovqatini shunday o'zgartiradi?		
Baholash va tanqidiy yondashuv	O'quvchi dan matnni baholash yoki tanqid qilishni talab etadi	Tulki odatda “ayyor hayvon” deb ataladi. Siz bunga qo'shilasizmi? O'z fikringizni izohlang.	Fikrini asoslab yozadi	Baholash va tanqidiy yondashuv

*Baholash mezoni:*

2 – To'liq tushunish

- Javoblarda matn mazmuni to'liq tushunilganini ko'rsatadi.
- Tulkinining xatti-harakatlari (ovqatlanishi, yashash joyi, mo'ynasining qishda o'zgarishi) haqida matnning turli qismlaridan olingan ma'lumotlar keltiriladi.

- Javob mazmuni: o'quvchi tulkinining yashash joyi, ovqatlanishi va qishda mo'ynasining qalinlashishini izoh bilan tasvirlaydi.

1 – Qisman tushunish

- Javoblarda matnning faqat bitta qismi tushunilganini ko'rsatadi.

- Javob mazmuni: o'quvchi faqat tulkinining yashash joyini yoki ovqatini yoki mo'ynasining o'zgarishini eslatadi, lekin izoh bermaydi.

0 – Noto'g'ri tushunish

- Javoblarda tulki haqida noto'g'ri yoki matnga aloqasiz ma'lumotlar beriladi.

- Javob mazmuni: o'quvchi tulki haqida mutlaqo boshqa fikr bildiradi (masalan, “tulki dengizda yashaydi” deb yozadi) yoki matndan olingan ma'lumotni umuman izohlasmaydi.

Bu mezonlar o'quvchining nafaqat matnni yodlab olish, balki uni anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi yo'llar muhim hisoblanadi:

20-Sentyabr, 2025-yil

1. O'quv dasturlarini takomillashtirish – PIRLS topshiriqlari asosida turli janrdagi matnlarni o'qish, tushunish va tahlil qilishni o'quv dasturiga integratsiya qilish.
2. Didaktik mashqlarni boyitish – faktual, badiiy va aralash matnlar asosida savollar tuzish, matn yuzasidan bahs-munozaralar tashkil etish.
3. O'qituvchilar malakasini oshirish – xalqaro mezonlar asosida o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini chuqur o'rgatish.
4. Baholash tizimini yangilash – o'quvchining nafaqat o'qish tezligi, balki matnni anglash, xulosa chiqarish va fikr bildirish ko'nikmalarini ham aniqlash.
5. O'quvchilarda motivatsiyani oshirish – kitobxonlik tanlovlari, ijodiy topshiriqlar orqali o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, PIRLS tadqiqoti mamlakatimizda boshlang'ich ta'limga sifatini oshirish, o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida baholash va ularni zamonaviy ta'limga talablariga mos ravishda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Юсупова Г., & Сабурова С. (2022). Xalqaro baholash dasturlari ( pisa, timss, pirls) va ularni amalda qo'llay olish. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 302-306. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5613>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'limga sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
3. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009
4. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247.